



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA FANI O'QUV MATERIALINING DIDAKTIK TAHLILI VA O'QITISH METODLARI TAVSIFI

Xujomov Jasurbek Shokirovich<sup>1</sup>, Xajiyeva Mexribon  
Sattarovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Xorazm viloyati, Urganch tumani 29-sonli umumiy orta ta'lim  
maktabi informatika fani o'qituvchisi

<sup>2</sup>Xorazm viloyati, Urganch tumani 29-sonli umumiy orta ta'lim  
maktabi informatika fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5797760>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10 - dekabr 2021

Ma'qullandi: 15 - dekabr 2021

Chop etildi: 20 - dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Informatika, o'qitish  
metodlari, ta'lim, me'yor,  
malaka.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada umumiy o'рта ta'lim maktablarda informatika fani o'quv materialining didaktik tahlili, o'qitish metodlari tavsifi va ularning o'quvchilar o'quvchilar o'quv faoliyatidagi samaradorligi haqida so'z yuritiladi.*

Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning muayyan turdagi o'quv muassasida o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda bir tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bilim, malaka va ko'nikmalar doirasi eng muhim faktlar, ilmiy tushunchalar, qonun va nazariyalarni, dunyoqarash g'oyalarini, axloqiy hamda estetik me'yorlar va ideallarni, o'quvchilarning ko'rsatilgan ma'lumotlarini o'rganishi, ularning ilmiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqidagi materiallarni, shuningdek, malaka va ko'nikmalarni, shu jumladan, olingan bilimlarni amalda qo'llash va yangi bilimlarni egallashdagi malaka hamda ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Ta'limning mazmuni bir qator omillarni hisobga olish bilan belgilanadi, bu omillarning asosiylari quyidagilardir:

- ijtimoiy ishlab chiqarishning obektiv ehtiyojlari hamda fan va texnikaning taraqqiyot darajasi;
- davlatning muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari;
- o'qitish tamoyillaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Tarbiya mazmuni, o'qitish metodlari va usullari va tashkiliy ko'rinishlarini, o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv ishi turini ko'p jihatdan belgilab beradi. Shu munosabat bilan, tarbiya mazmunini didaktik tahlil qilish va o'quv materiali guruhini belgilash muhim, bu esa uni o'rganishning samarali usullarini didaktik



tahlil qilishga, uni har tomondan ancha aniq belgilashga imkon beradi. Informatika fanining ish dasturlarida berilgan o'quv materialini mazmun jihatidan tahlil qilib, quyidagi asosiy umumiy guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1-guruh. Algoritmalar nazariyasi masalalarini ochib beruvchi o'quv materialini.

2-guruh. Axborot va axborot texnologiyalari masalalarini ochib beruvchi o'quv materialini.

3-guruh. Dastur va dasturlash nazariyasi haqidagi o'quv materialini.

4-guruh. Lokal va global tarmoqlar bilan ishlash.

O'quv materialining bunday bo'linishi, tabiiyki, shartlidir. Har bir guruhning o'quv materialini dasturlarning ayrim mavzu va bo'limlarida sof holda kamdan-kam berilgan. Qariyb har qaysi mavzu va bo'limda mazmun jihatidan har xil va turli nisbatdagi materialni topish mumkin. O'quv materialini mazmuni, turi va ahamiyati jihatidan tahlil qilish maxsus fanlarni o'rganishning eng maqbul tashkiliy metodlari va usullarini tanlashga imkon beradi. Umumiy fanlarni, maxsus fanlarni o'rgatish oliy o'quv yurtlari o'quvchilariga nazariy ta'lim berishning asosini tashkil etadi. Bu ta'lim amaliyot bilan mustahkam bog'lanishda amalga oshiriladi hamda o'quvchilarni o'rganayotgan kasbini chuqur, har tomonlama va ongli o'zlashtirib olishi uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik va texnikaviy bilimlar bilan qurollantiradi. Nazariy ta'lim o'quvchilarning kasbiy bilim doirasini kengaytiradi, ularda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodning shakllanishiga, aqliy qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti ta'limi bo'lajak kadrning ixtisosligi bo'yicha tayyorgarligi asosini tashkil etadi. Ishlab

chiqarish ta'limi jarayonida o'quvchilar ishning belgilangan muddatda sifatli bajarilishini ta'minlaydigan mustahkam kasbiy malakalarni, zamonaviy texnika va ilg'or ish metodlaridan to'g'ri foydalangan holda yuksak unum bilan mehnat qilish usullarini egallab oladilar.

O'quv materiallarini tahlil qilishda didaktik xatti-harakatlar muhim o'rin tutadi.

*Didaktik xatti-harakatlar* deganda, o'qituvchining ta'lim jarayonini didaktika va metodika bilimlarini qo'llash orqali tashkil etish xatti-harakatlari tushuniladi. Ular o'zaro bog'liq va aylanma harakatda amalga oshadigan o'qitish tadbirlari modeliga asoslangan, ya'ni ular mashg'ulot jarayonida yoki ish o'rnida o'qituvchi tomonidan muntazam ravishda takrorlanadigan tadbirlarni bildiradi. Ular biror-bir jarayonning barcha qismlarini qamrab oladi. Misol uchun aniq bir nazariy darsni o'tkazish yoki yo'l-yo'riq berish (instruktaj) uchun «Tayyorgarlik ko'rish - O'tkazish - Baholash» kabi harakatlar kerak bo'ladi.

Didaktik xatti-harakatlar quyidagi savollar bilan uzviy bog'langan:

1. Kimlar o'qitadi?
2. Kimlarni o'qitish kerak?
3. O'qitish orqali qanday maqsadlarga erishish lozim?
4. Maqsadlarga erishish uchun qanday mavzularni o'qitish kerak?
5. Nazariy yoki amaliy darsda qaysi usullar yordamida o'qitish zarur?
6. Nazariy yoki amaliy darslarni qanday sharoitda o'tkazish kerak?
7. O'qitishni qanday tashkil qilmoq darkor?
8. Ko'zlangan maqsadga erishilganini tekshirish uchun natijalar qanday baholanadi?



Nazariy bilimlarni o'qitish bo'yicha quyidagi didaktik xatti-harakatlarni ko'rsatish mumkin:

1. Nazariy dars yoki yo'l-yo'riqqa oid dastlabki shart-sharoit va tayyorgarlikni baholash.

2. O'quv maqsadi va mazmunlarini belgilash.

3. Nazariy dars va yo'l-yo'riq rejalarini ishlab chiqish.

4. O'quv-didaktik materiallarni tayyorlash.

5. Nazariy dars va yo'l-yo'riq berish.

6. Nazariy bilimlarni baholash.

Ko'p hollarda darslarni asosiy didaktik maqsadiga ko'ra tasniflashni eng ma'qul deb hisoblamoq kerak, chunki bunda boshqa hamma narsalardan tashqari, darsning o'quv jarayonidagi o'rni ham hisobga olinadi. Bu alomatga ko'ra darslarning quyidagi turlari mavjud:

- yangi bilimni bayon etish darslari,
- bilimni puxtalash, takrorlash va umumlashtirish darslari,
- o'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish darslari,
- aralash darslar.

Informatika o'qitish metodikasida asosiy o'rinlardan yana birini o'qitish metodlari (usullari) egallaydi.

O'qitish metodi (metod grekcha *metodos* – so'zidan olingan bo'lib, biror narsaga yo'l ma'nosini bildiradi) – ta'lim va tarbiya vositasi sifatidagi o'qitish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining bir-biri bilan bog'langan faoliyatining tartiblangan usullaridir.

O'qitish metodlarining muammolarini «Qanday o'qitish kerak?», «Nima uchun o'qitish kerak?», «Nimalarni o'qitish kerak?» va «Kimlarni o'qitish kerak?» kabi savollar orqali ifodalash mumkin. O'qitish

metodlarini an'anaviy va noan'anaviy metodlarga bo'lish mumkin. An'anaviy metodlar sifatida quyidagilardan foydalanilmoqda:

- Amaliy metodlar – tajriba, mashqlar bajarish, mustaqil ish, laboratoriya ishi.

- Ko'rgazmali metodlar – illustratsiya, kuzatish.

- Og'zaki metodlar – tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, ma'ruza.

- Kitob bilan ishlash – o'qish, tez ko'rib chiqish, tsitata olish, bayon etish, qayta so'zlab berish, konspekt qilish.

- Video metod – ko'rib chiqish, mashq qilish.

Hozirgi kunda akademik Yu.K. Babanskiy tavsiya etgan o'qitish metodlari keng tarqalgan. Unda o'qitish metodlari uchta katta guruhlarga bo'lingan:

- o'quv – bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;

- o'quv – bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari;

- o'quv – bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiya metodlari.

O'quv – tarbiya jarayonida o'qitish metodlari asosida qo'yidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'rgatuvchi;
- rivojlantiruvchi;
- tarbiyaviy;
- istak tug'diruvchi yoki motivatsiya;
- nazorat-korreksion.

O'qitishning noan'anaviy metodlarini qiziqtiruvchi va interaktiv metodlariga bo'lish mumkin. O'qitishning qiziqarli metodlariga krossvord ko'rinishdagi so'rov va rebus shakllarini misol qilish mumkin. O'qitishning interaktiv metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega. Interaktiv so'zi inglizcha «interact» so'zidan olingan bo'lib, «inter»-o'zaro, «act»-ish



ko'rmog, ishlamoq degan ma'nolarni anglatadi. Interaktiv deganda o'zaro ish ko'rish, faoliyat ko'rsatish yoki suhbat tartibida kim bilandir muloqot holatida bo'lish tushuniladi. Interaktiv (interfaol) o'qitish muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interaktiv o'qitishda o'quv jarayonida barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'qitishning interaktiv metodlariga Venna diagrammasi, klasterlar, insert texnologiyasi, T-sxema, katta aylana, Aqliy hujum, Chigal mantiqiy zanjirlar, 6\*6\*6 metodi, Rolli o'yinlar, Besh minutlik esse kabi metodlarni misol qilish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishininig asbalaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilo'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-

interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-o'quvchilarningbirgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilar dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, kompyuter, masofali o'qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilandi.



Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil firlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, tahlil eta olsalar, o'zleri xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishiga

qaratilgan, bunda o'quvchining bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyalari kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.M. Aripov, T. Imomov va boshqalar «Informatika, axborot texnologiyalari» T. TDTU, O'quv qo'llanma, 1-2 qism, 2002, 2003 y.
2. S.S. G'ulomov va boshqalar «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T. – «Sharq» - 2000-yil.
3. T.X. Xolmatov, N.I. Taylaqov, U.A. Nazarov «Informatika va hisoblash texnikasi» T. – «O'zb.M.E.» – 2001-yil.
4. A.A. Abduqodirov, A.G'. Hayitov, R.R. Shodiev «Axborot texnologiyalari» T. – "O'qituvchi" – 2002-y.